



O'RGANISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK JIHATLARI: ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ULARNING ILMIIY-PEDAGOGIK TAHLILI

Negmatova A.

*Andijon davlat pedagogika instituti,
pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.*

Tayanch so'zlar: o'rganish qobiliyati, psixologik jihatlari, xulq-atvor, an'anaviy ta'lim, ta'limning maqsadi, ta'limning mazmuni, ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi.

Ключевые слова: способность к обучению, психологические аспекты, поведение, традиционное образование, цель образования, содержание образования, воспитатель, получатель образования.

Key words: ability to learn, psychological aspects, behavior, traditional education, purpose of education, content of Education, educator, educator.

Резюме:

Ushbu ilmiy maqolada o'qish va o'rganish deyarli har doim ongli jarayonlarni tavsif etadi. O'rganish ongsiz darajada sodir bo'lishi mumkin bo'lib, biror narsani o'rgangan odam, bu haqiqatan ham sodir bo'lganligini tushunmasligi mumkin. Jumladan jamiyatda insonlarning xulq-atvoriga e'tibor beradigan bo'lsak, ular o'zlarida doimiy boshqa insonlarga xos bo'lgan odatlar, so'zlar, harakatlarni o'rgangan bo'ladilar. Bu esa boshqalarni kuzatish, kuzatilganlarini eslab qolish, o'rganish hamda o'zlashtirish maqsadini ongli ravishda amalga oshirmaydi. Shu kabi ilmiy izlanishlar keltirib o'tilga.

Резюме:

В этой научной статье почти всегда описываются сознательные процессы чтения и обучения. Обучение может происходить на бессознательном уровне, и человек, который чему-то научился, может не осознавать, что это действительно произошло. В частности, если мы обратим внимание на поведение людей в обществе, они усвоят привычки, слова, действия, которые постоянно присущи другим людям. При этом сознательно не достигается цель наблюдения за другими, запоминания, изучения и усвоения наблюдаемого. Приведены аналогичные научные исследования.

Summary:

In this scientific article, reading and learning almost always describes conscious processes. Learning can happen on an unconscious level, and a person who has learned something may not realize that it really happened. In particular, when we pay attention to the behavior of people in society, they will have learned in themselves habits, words, actions that are constantly inherent in other people. This does not consciously pursue the goal of observing, remembering, learning, and appropriating others. Similar scientific research has been brought to the fore.



Kirish. O'rganish qobiliyatlari yoki o'rganish strategiyalari o'rganish uchun qo'llaniladigan yondashuvlardir. O'rganish qobiliyati - bu yangi ma'lumotlarni qabul qilish, ma'lumotni saqlash yoki baholash bilan shug'ullanish jarayonini hal qiluvchi ko'nikmalar majmuasidir. Ular odatda qisqa vaqt ichida o'rganilishi mumkin bo'lgan va ta'limning barcha yoki ko'pgina sohalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan diskret texnikalardir. Kengroq ma'noda, insonning o'rganish, saqlash va imtihonlardan o'tishga yordam beradigan ma'lumotni eslab qolish qobiliyatini oshiradigan har qanday mahoratni o'rganish mahorati deb atash mumkin va bunga vaqtni boshqarish va motivatsion usullar kiradi. Keyingi vaqtda ta'limda mnemonikaga asoslangan o'rganish strategiyalariga bo'lgan talab ortib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tanqidiy tahlili. O'quv faoliyati bu shunday faoliyatki, unda shaxsning psixik jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi, uning asosida yangi faoliyatlar yuzaga keladi. O'quv faoliyati insonning butun hayoti davomida namoyon bo'luvchi uzluksiz jarayondir. Rus psixologi A.N.Leontev inson faoliyatining psixik va amaliy shakllari mavjudligini, bola ongi aynan o'quv faoliyatida o'sishini ta'kidlaydi.

D.B.Elkonin esa o'rganish faoliyatining xususiyatlarini ko'rsatib, uni mohiyatiga, mazmuniga va o'zini namoyon bo'lish shakliga ko'ra ijtimoiyligini ta'kidlaydi. Shundan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, o'rganish faoliyati natijasi avvalo ta'lim oluvchida o'zgarish yuz berishi bilan namoyon bo'ladi. Uning mahsuli turli motivlar asosida qurilgan bo'lishi lozim. Bu motivlar bevosita ta'lim oluvchi shaxsining o'sishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lishi kerak.

O'rganish faoliyati ta'lim, o'qish va o'rganish degan tushunchalar bilan bevosita bog'liqdir. Ta'lim pedagog va o'quvchi hamkorligidagi o'quv faoliyati, pedagogning bilim, ko'nikma va malakalarini o'quvchilarga o'rgatish jarayonidir. Ta'lim jarayoni bevosita muayyan axborotni, harakatlarni, xulq-atvorning shakllarini o'zlashtirishga qaratilgandir. O'qish va o'rgatish tushunchalari o'quv faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ular bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga, o'rgatishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'rganish turlari ichida keng tarqalganlaridan biri reaktiv o'rganishdir. Reaktiv o'rganishda ta'lim oluvchi passiv hisoblanadi. Reaktiv o'rganish an'anaviy ta'limda keng qo'llanilib, ta'lim oluvchining bilim va ko'nikmalari tizimlashtirilgan, oldindan o'rganish natijalarini qayd qilish mumkin ekanligi bilan tavsiflanadi. Bu o'rganish turi o'quv reja, dars reja, uy vazifalari va imtihonlarda ham nomoyon bo'ladi. Ta'lim tizimida reaktiv o'rganishga nisbatan tanqidiy munosabatlar shakllangan bo'lsada, ayrim ta'lim

sohasi ekspertlari reaktiv ta'limda ta'lim oluvchining o'rganish natijasining aniqligini ustuvor jihat sifatida baholaydilar, shuningdek oldindan o'rganish natijasini qayd qilib bo'lmaydigan o'rganish turlaridan afzalroq deb hisoblaydi.

Ta'lim jarayoni alohida tashkil etiladigan hamda boshqariladigan faoliyat bo'lib, u talabalarning o'quv faoliyatlarini tashkil etadi va ularni boshqaradi. Ma'lumki ta'lim jarayoni besh elementdan iborat:

1. Ta'limning maqsadi
2. Ta'limning mazmuni
3. Ta'limning metodlari, usullari va pedagogik muloqot yo'llari.
4. Ta'lim beruvchi.
5. Ta'lim oluvchi .

Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan pedagog tomonidan beriladigan ko'rsatmalarga ham bog'liq. Pedagogning roli shundan iboratki, u talabalarda tegishli ustanovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolishi kerakligini, nimani butunlay esda olib qolmasdan, faqat tushunib olish kifoya qilishini, nimani so'zma-so'z esda olib qolishni, nimaning ma'nosini o'z so'zlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini ko'rsatib o'tishi lozim. Pedagogik kuzatishlar shuni nazard tutadiki, bunday ko'rsatmalar berilmaganda, talabalarda ko'pincha noto'g'ri tasavvurlar vujudga keladi.

Shu o'rinda ta'limning emotsionalligiga e'tibor qaratish zarur. O'qitishning emotsionalligi ta'limning muvaffaqiyatlilikini ta'minlovchi omillardan biridir. Ta'lim berish jarayoni emotsional jarayon. Agar talabalarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his-tuyg'u uyg'otmasa, uni talabalar yaxshilab esda olib qolmaydilar. O'rganish talabalarning psixik xolatlari, ya'ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari bilan uzviy bog'liq. Ulardagi quvonchli, optimistik kayfiyat o'quv faoliyatini samarali tashkil qilinishiga sabab bo'lishi mumkin. Talabalar emotsional ruhdagi materialni mahsuldor o'zlashtiradilar.

O'rganishning barqarorligi uning tasavvurga, kognitiv mustaqillikni ta'minlashga yo'naltirilganligidadir. "Barqarorlik tushunchasi bevosita "o'rganish" tushunchasi bilan qo'llanilar ekan, uning mohiyatini tushunish lozim bo'ladi. "Barqarorlik" tushunchasi ingliz tilidagi "responsibility" tushunchasi bilan ma'nodosh bo'lib, o'rganish natijasining "uzoq muddat yoki bir umrga qolishi", "xotirada mustahkam qolishi", "qo'llash uchun to'siq qolmaganligi"ni tavsif etadi. Shuningdek, keyingi vaqtlarda "barqaror ta'lim", "barqarorlik uchun ta'lim" tushunchalari pedagogik amaliyotda keng qo'llanilmoqda. "Barqaror ta'lim" tushunchasi ta'limning butun hayot davomida uzluksiz davom etishi, o'rganilgan bilim, ko'nikma va malakalar amaliy tadbiiq etish



xarakteriga ega ekanligini tavsif etadi. “Barqarorlik uchun ta’lim” tushunchasi esa, ta’limning inson, jamiyat, atrof-muhit, taraqqiyot uchun ahamiyatini tavsif etadi. Shu o’rinda har ikkala tushuncha uchun bir misol keltirib o’tiladi. Ta’lim oluvchilarga plastik buyumlardan foydalanishning salbiy oqibatlarini ta’sirchan tarzda ilmiy tushutirish, plastik buyumlardan foydalanishning zararli oqibatlarini aniq misollar bilan keltirish ularda “barqaror ta’lim” jarayonini keltirib chiqaradi. Ta’lim oluvchi, plastik buyumlardan foydalanmaslik bo’yicha ma’lumotlarni o’rganib, ularni o’z kundalik-amaliy faoliyatiga tadbiiq etish yuzasidan xulosalarni shakllantiradi. Bu esa ularda doimiy ravishda plastik buyumlardan foydalanmaslik, bu bilan bog’liq holatlarni kuzatish, hamda qabul qilingan qarorga nisbatan mas’uliyatli munosabatni keltirib chiqaradi. Bu esa “barqaror ta’limning” maqsadi hisoblanadi. „Barqarorlik uchun ta’lim” bu pedagogik yondoshuv bo’lib, ta’lim oluvchilarning insoniyat, jamiyat, atrof-muhit taraqqiyoti uchun zaruriy bo’lgan bilimlar majmuasini o’rganishni aks ettiradi. Elektr energiyasidan unumli foydalanish, tabiatga mas’uliyatli munosabat, resurslarni isrof qilmaslik “Barqarorlik uchun ta’lim”ning mazmuniga mos keluvchi namunaviy mavzular hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Ta’lim jarayonida talabalarning bilishga qiziqishlari g’oyat katta rol o’ynaydi. Ma’lumki, qiziqish talabalarni o’rganish faoliyatining asosiy va dastlabki sharti hisoblanadi. Psixologiyada o’quvchilarning ta’lim jarayonidagi qiziqishining ikki turi aniqlanadi. Birinchisi, bevosita qiziqish, ikkinchisi bilvosita qiziqish.

“O’rganish” tushunchasi psixologiyada keng tadqiq etiladi. Fanning bir tarmog’i sifatida “o’rganish psixologiyasi” fani ham mavjud. Bu fan o’rganish bilan bog’liq bo’lgan turli xil psixologik nazariyalarni qamrab oluvchi nazariy fan hisoblanadi. Ma’lumki, tarixan o’rganishning turli xil psixologik nazariyalari mavjud. Neyrologiya va ijtimoiy idrok bilan bog’liq nazariyalar kabi boshqa yondashuvlar o’rganishni aniqlash uchun miyaning tuzilishiga ko’proq e’tibor beradi. Ijtimoiy konstruktivizm kabi ba’zi psixologik yondashuvlar insonning atrof-muhit va boshqalar bilan o’zaro munosabatiga ko’proq e’tibor qaratadi.

O’rganish strategiyasi va texnikasi asosan pedagogik psixologiyada ko’p o’rganiladi. Pedagogik psixologiya predmeti ta’lim oluvchilarga ta’lim-tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o’rganish, o’quvchilar tafakkurini taraqqiy topishi, intellektual faoliyat malakalari va usullarini o’zlashtirish jarayonini boshqarish masalalarini o’rganadi.

O’rganish rivojlanishning yosh xususiyatlarini o’rganuvchi yosh psixologiyasi fanida o’raniladi. Inson shaxsining psixologik xususiyatlari va bilish jarayonlarining ontogenezdada rivojlanishini o’rganadi. Yosh psixologiyasi

bolalar psixologiyasi, o'smirlar psixologiyasi, kattalar psixologiyasi, gerontopsixologiya kabi tarmoqlarga bo'linadi.

Tadqiqot natijalarining muhokamasi. Bugungi kunda o'rganish psixologiyasi pedagogik amaliyotda keng qo'llaniladi. So'nggi yillarda ta'lim oluvchilarning o'quv guruhlarida ham, tashqarisida ham qanday o'rganayotgani bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilib kelinmoqda. Tadqiqot natijalari yangi ta'lim metodlari, o'quv adabiyotlari mazmuni, uy vazifalari, o'quv va sinov topshiriqlarini shakllantirishda qo'llaniladi. O'rganish psixologiyasi bilan bog'liq nazariyalar ta'lim oluvchilarning kognitiv faoliyati, motivatsiyasi, o'rganish jarayonini "vaqt va samaradorlik" uzviyligi jihatidan muvaffaqiyatli tashkil etishi uchun intensiv ravishda amaliyotga tadbiiq etilmoqda .

Quyidagi jadvalda o'rganish psixologiyasini rivojlanishiga hissa qo'shgan olim va faylasovlar va ularning o'rganishga doir ilmiy nazariyalari va qarashlari keltirib o'tilgan (1.2-jadvalga qarang).

1.2-jadval. O'rganishga doir ilmiy nazariyalar va qarashlar

Olim va faylasovlar	Ilmiy nazariyalarining ahamiyati
Suqrot	Suqrot (miloddan avvalgi 469-399) o'rganishda fikrlash kuchining ahamiyatini e'trof etadi. Fikrlash kuchi orqali inson dunyoni anglashi, o'z savollariga javob izlashini keltirib o'tadi. Fikrlash kuchi inson o'z savollariga to'g'ri javob topguncha faol bo'lishini ta'kidlaydi. Suqrot bilimning tug'ma ekanligini ta'kidlab, shaxs barcha bilimlarga ichki ehtiyoji orqali erishishini bayon etadi.
Hermann Ebbinghaus	Hermann Ebbinghaus (1850-1909) nemis psixologi bo'lib, eslab qolish va unutishni o'rganish orqali tekshirgan. Olim o'z eksperimental tadqiqotlarida takrorlash orqali o'rganish samaradorligi ortishini tadqiq qilgan.
Edvard Torndik	Edvard Torndik (1874-1949) 1898-yilda o'zining „Ta'sir qonuni“ nazariyasini taqdim etadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, odamlar va boshqa hayvonlar xatti-harakatlarni sinov va xato usullari orqali o'rganadilar. Faoliyatli yechim topilgach, bu xatti-harakatlar bir xil yoki shunga o'xshash vazifa davomida takrorlanishi mumkin. Bu uning o'rganish nazariyasi bo'yicha ishi bo'lib, bixeviorizmda operant konditsionerlikka olib keldi.
Ivan Pavlov	Rus olimi Ivan Petrovich Pavlov o'rganish bo'yicha tadqiqotlarga hissa qo'shgan. Och qolgan itning oziq-ovqat mavjud bo'lganda so'lak chiqishini tekshirib, u bir qator tajribalar o'tkazadi va itlarni tashqi ogohlantirishlar orqali so'lak chiqarishini kuzatadi.



Jan Piaget	Jan Piaget o'zining kognitiv rivojlanish nazariyasi bilan mashhur bo'lib, u bolalar atrofidagi dunyoning aqliy modelini qanday yaratishini tasvirlaydi. Uning nazariyasi juda muhim bo'lib, u aqlning barqaror xususiyat ekanligi haqidagi g'oyaga qo'shilmagan birinchi nazariyachilardandir. Uning nazariyasi kognitiv rivojlanishni biologik yetuklik va uning atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri tufayli sodir bo'ladigan narsa deb biladi.
Lev Vygotskiy	Lev Vygotskiy fanda kognitiv rivojlanish nazariyasi bilan mashhur bo'lib, o'zining nazariyalarini Jan Piaget bilan bir vaqtda ishlab chiqdi. Vygotskiy ijtimoiy o'zaro ta'sir kognitiv rivojlanishda hal qiluvchi rol ahamiyatga ega ekanligi, shuningdek san'at, madaniyat va uning kognitiv rivojlanishga qanday ta'sir qilishini tadqiq etgan. Vygotskiyning ta'kidlashicha, inson rivojlanishni u o'rnatilgan ijtimoiy va madaniy kontekstga murojaat qilmasdan tushunish mumkin emas. Vygotskiyning ta'kidlashicha, o'rganish o'zaro ta'sir orqali sodir bo'ladi, bunda bola xatti-harakatlarini modellashtiradigan yoki bolaga amal qilish uchun ko'rsatmalar beradigan odam bilan, ehtimol ota-ona yoki o'qituvchi bilan bo'ladi. Bola tavsiya etilgan ko'rsatmalar yoki harakatlarni tushunishga harakat qiladi va keyin ma'lumotlarni zaruriy vaqtda, joyda ishlatishni o'rganadi.

Talabalarda o'rganish strategiyasi va texnikasini rivojlantirish muammosi pedagogika, pedagogik psixologiya, kognitiv psixologiya fanlarining yildan-yilga ahamiyati va dolzarbligi ortib borayotgan masalalaridan biri hisoblanadi. Ta'lim oluvchilarning dunyoni ilmiy tushunishi, shaxs sifatida faolligi va faoliyati o'rganish jarayonlari orqali amalga oshadi. O'rganish ta'lim oluvchilarning aqliy qobiliyatlarini, fazilatlarini, ularning tashabbuskorligi va individualligining ajralmas qismidir. O'rganish strategiyasini rivojlantirish mazmunini aniqlash avvalambor "o'rganish faoliyati", "o'rganish qobiliyati", "o'rganish uslubi", "o'rganishga qiziqish", "o'rganish motivi", "o'rganish strategiyasining rivojlanganligi" hamda "o'rganish turlari" kabi tayanch tushunchalarni tahlil qilish zaruratini tug'diradi.

O'rganish faoliyati. O'rganish shaxsning ijtimoiy ahamiyatli fazilati bo'lib, shaxsning hilma-hil faoliyat turlari negizida shakllanadi. Shaxs faoliyat jarayonida shakllanadi va rivojlanadi, shaxsning faoliyatga bo'lgan munosabatiga qarab, faoliyat turli darajaga, turlicha xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Faoliyat – bu shaxsning o'ziga xos xususiyati bo'lib, u shaxsning faoliyatga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi: tayyorlik holati, mustaqil faoliyatga intilish, uni amalga oshirish sifati, maqsadga erishishning maqbul usullarini tanlash. O'rganish faoliyati shaxsning yangi bilim, ko'nikma, ichki

qat'iyat va ma'lum bilimlarni to'plash, kengaytirish uchun turli xil harakat usullaridan foydalanish zaruriyatiga bo'lgan qiziqishini aks ettiradi.

O'rganish faoliyatini rivojlantirish muammosi o'qituvchilar va psixologlarning turli xil asarlarida ko'rib chiqilgan. Ya. A. Komenskiy, K. D. Ushinskiy, D. Lok, Jan-Jak Russo o'rganishni shaxsning o'rganishga bo'lgan tabiiy istagi sifatida belgilaganlar. M. A. Xolodnaya, T. M. Golovastikova, S. M. Vishnyakova, G. I. Shukina va boshqalar o'rganish faoliyatning xususiyatlarini va uni shaxsda qanday faollashtirishni tadqiq etganlar.

“O'rganish faoliyati”ga doir tadqiqotlarda uning “pedagogik hodisa” yoki “ikki tomonlama o'zaro bog'liq jarayon” kabi tavsiflari mavjud. “O'rganish faoliyat”ini sub'ektiv va ob'ektiv jihatdan ko'rib chiqish mumkin. Sub'ektiv jihatdan qaraganda, ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'rganish faoliyatini tashkil etishdagi alohida pedagogik faoliyatlarning natijasi sifatida qaraladi. Ob'ektiv jihatdan qaraganda, ta'lim oluvchining o'zi tashkil etgan, atrof-olamni, o'zini va o'zgalarni anglash jarayoni sifatida talqin etish mumkin. Ikkala jihat ham tadqiqotimiz maqsadi nuqtai nazaridan muhim bo'lib, bir-birini to'ldiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi xususiyatga ega. Didaktik materiallar ishlab chiqishda ham mazkur jihatni hisobga olish katta ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar. Bizningcha, ta'lim beruvchining faoliyati (sub'ektiv) ta'lim oluvchining mustaqil o'rganish faoliyatidan (ob'ektiv) o'z-o'zini shakllantirish, ma'lum tamoyillarga ustuvorlik berishlik, faoliyat jarayoniga o'tkazishga qaratilishi lozim. Bu esa didaktik materiallar ishlab chiqishda ta'lim oluvchilarni nafaqat o'quv mashg'ulotida biror bir o'rganish faoliyatiga yo'naltirish, balki o'quv mashg'ulotlaridan tashqarida ham izlanuvchanligi, qiziquvchanligi, ijodkorligini faollashtirishni hisobga olishni taqozo etadi. Ko'plab pedagogik-psixologik tadqiqotlarda o'rganish faoliyatini birinchi jihatiga e'tibor qaratilgan. O'tgan asrning 50-70 yillaridagi psixologik-pedagogik tadqiqotlarda “o'rganish faoliyati” ta'lim oluvchining pozitsiyasi sifatida tavsiflanadi.

Bu xususidagi fikrlarini davom ettirib, ta'lim oluvchining “bilim olishga intilishi uning aqliy mehnati hisoblanib, bu bilimlarni o'zlashtirish jarayonida ixtiyoriy amalga oshiriladigan faol harakat” deb izohlagan. Ta'lim beruvchining fan mazmunini etkazishda ta'lim oluvchilarni mantiqiy va izchillikni tushunishga yo'naltirish, ularni faollashtirish, asosiy va muhim tushunchalarni ajratish, alohida ta'kidlash katta rol o'ynaydi. Ta'lim oluvchilarda mashg'ulot mavzusiga doir savollarni shakllantirishga undash ulardagi bilimlarning “mavjud holati”ni aniqlashga hamda qiziqish sohaslarini belgilab olishga yordam beradi. Ta'lim beruvchining fan mazmunini professional ravishda taqdim qila olishi, ta'lim



oluvchilarni qiziqitira olishi katta rol o'ynasa, o'quv materiallari, metodlar va topshiriqlar ta'lim oluvchining o'rganish faolligini oshirishga turtki beruvchi jihatlar hisoblanadi.

O'rganish qobiliyati. Ilmiy manbalarda o'rganish faoliyati bilan bir qatorda o'rganish qobiliyati iborasi ham keng qo'llaniladi. O'rganish qobiliyati ta'lim oluvchining asosiy faoliyati bo'lib, u ta'lim oluvchining intellektual rivojlanishi, uning atrofidagi dunyo haqidagi bilimlarini aniqlashtirish uchun katta ahamiyatga ega. Qobiliyatlar – bu insonning individual psixologik o'ziga xosligi bo'lib, bu sifat shaxsning ilmiy, amaliy va ijodiy faoliyatida namoyon bo'ladi hamda uni amalga oshirish muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Pedagogika va psixologiyaning zamonaviy rivojlanish bosqichida o'rganish qobiliyati shaxsning intellektual va hissiy qobiliyatlarining kombinatsiyasi sifatida tushuniladi. O'rganish qobiliyati har qanday bilim faoliyati muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Ya'ni o'rganish qobiliyati atrof-olamni, dunyoni bilishga qaratilgan, sharoit va omillar ta'siri ostida rivojlanayotgan insonning individual xususiyatidir.

O'rganishga qiziqish. Shaxsning o'rganishga qiziqishi dunyo, atrof-muhit bilan bog'liq mavzular hisoblanadi. O'quv materialining mazmunini chuqur o'ylagan holda tanlash, ilmiy bilimlarga xos tushunchalarni singdirish o'rganishga bo'lgan qiziqishni shakllantiradi. T.M.Golovastikovaning ta'kidlashicha, birinchi navbatda bunday o'quv materiallari ta'lim oluvchida qiziqish uyg'otadi va mustahkamlaydi, ularni noma'lum narsalar hayratga soladi, tasavvurini kengaytiradi. Ajablanish holati esa idrok qilish uchun rag'batning asosiy elementi sifatida maydonga chiqadi. Ta'lim oluvchining ajablanish holati yangi narsalarni o'rganishga intilish, yangi narsalarni kutish holati bo'lib hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Леонтев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность: Учебное пособие. 2-е изд., стереотипное. М.: Смысл: Академия, 2005. -с. 236
2. Эльконин Д. Б., Давыдов В. В. Некоторые психологические проблемы построения учебных программ. Психологическая наука и образование 1.1,1996. -с. 42-45.
3. Кравцов, Г. Г., Кравцова Е. Е. Взаимосвязь обучения и развития: проблемы и перспективы. Культурно-историческая психология 16.1, 2020. -с. 4-12.
4. Raximov B., Narziyeva N.N.. Pedagogik mahorat. Darslik. Guliston: "SamDCHTI" nashriyoti, 2021. -B.154.
5. Illeris K. An overview of the history of learning theory. European Journal of Education, 2018. -p. 86–101.
6. Schunk Dale H. Learning theories : an educational perspective, 6th, Boston: Pearson, 2012.
7. Поддьяков А. Психология обучения в условиях новизны, сложности, неопределенности.» Психологические исследования 8.40, 2015. -с. 244.



8. Ormrod J. E. Essentials of educational psychology: big ideas to guide effective teaching, Jones, Brett D., 1969-, Fifth, NY, NY.
9. Myers D.G. Psychology. New York, NY: Worth publishers, 2015. -р. 290.
10. Jean Piaget's Theory of Cognitive Development Simply Psychology.. www.simplypsychology.org
11. Vygotsky L. Simply Psychology. www.simplypsychology.org
12. Когнитивная психология в контексте проблем современного образования. Коллективная монография. Под редакцией А.А.Вербицкого, Е.Б.Пучковой. – Москва, МГПУ, 2017. – 330 с.; Лифинцева Н.И. К.Д.Ушинский о формах взаимного соотношения и гармонии веры и научного знания в образовании // Вестник ПСТГУ. Серия 4: Педагогика. Психология. 2008. №9. – 45 с.; Кибрик А.А., Кошелев А.Д., Кравченко А.В. Язык и мысль: современная когнитивная лингвистика. Языки славянской культуры. – Москва, 2015. – 857 с.; Величковский Б. Когнитивная наука. Основы психологии познания в 2 т. Том 1. 2-е изд., испр. – М.: Издательство Юрайт, 2017. – 447 с.
13. Холодная М.А. Психология интеллекта: парадоксы исследования. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – С. 264.; Головастикова Т.М. Как сделать учение увлекательным? // Начальная школа. – 2006, №2. – С. 30-34.; Вишнякова С.М. Профессиональное образование: Словарь. Ключевые понятия, термины, актуальная лексика. – Москва, НМЦ СПО, 1999. – 538 с.; Тимофеева Л.Л. Когда хочется учиться // Начальная школа. – 2007, №10. – С. 41-46.; Щукина Г.И. Педагогические проблемы формирования познавательных интересов учащихся. – М.: Педагогика, 1988. – 145 с.
14. Leandro S. A., Prieto, M. D., Aristides I. F., Bermejo M. R., Ferrando M, Ferrándiz C. Intelligence assessment: Gardner multiple intelligence theory as an alternative, Learning and Individual Differences, Volume 20, Issue 3, 2010. – P. 225-230.